



## OROL DENGIZI QURIGAN TUBIDA YASHIL QOPLAMALARNI PARVARISHLASH AGROTEXNIKASI

**Baltaniyazov Jaqsibay Sarsenbaevich**

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti,  
katta o'qituvchi, q.x.f.f.d. (PhD)

**Madraimov Rustamjon Matkarimovich**

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti  
magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10021439>

### ARTICLE INFO

Received: 12<sup>th</sup> Oktober 2023

Accepted: 18<sup>th</sup> Oktober 2023

Online: 19<sup>th</sup> Oktober 2023

### KEY WORDS

*Orol dengizi, saksovul o'simligi, o'sishi, rivojlanishi, agrotexnikasi, cho'l mintaqasi, samaradorligi.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada qurigan Orol dengizi tubida yashil qoplamalar barpo etishda o'simlik turlari, ularni ko'paytirish va parvarishlash agrotexnikasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Saksovul o'simligi cho'l mintaqalarida yashil qoplamalar barpo etishda dominant o'simlik turi hisoblanadi va boshqa o'simlik turlarining ko'payishi va rivojlanishi uchun mo'tadil sharoit yaratadi.*

Dunyoning turli mamlakatlarida qurg'oqchil va qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirish mumkin bo'lmagan maydonlardan chorvachilik uchun asosiy manbalardan biri bo'lgan yaylov sifatida foydalanilib kelinmoqda. Hozirgi kunda ushbu maydonlardan samarali foydalanish, hamda o'simliklarning nav va shakllari tarkibini kengaytirish, parvarishlash agrotexnikasini ishlab chiqish, o'simliklar tur tarkibini boyitish, o'simlik turlarini aralashtirib ekish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

O'rmon fondi yer resurslaridan samarali foydalanish, Orol dengizining qurigan tubidagi noqulay iqlim omillarini yumshatishga xizmat qiladigan o'rmon ihotazorlarini tuzish, o'rmon fitotsenozini shakllantirish bugungi kunda yechimini topishi zarur bo'lgan masalalardan hisoblanadi. 2022-202 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasining 3.3. bo'limida «global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish...» vazifalari belgilab berilgan. Bu o'rinda, Orol dengizining qurigan tubida yashil qoplamalar barpo etish orqali shamol eroziyasining salbiy oqibatlarini bartaraf etish, hamda yashil qoplamalar barpo etish dolzarb hisoblanadi.

Ko'chatlarning yashovchanligini hisobga olishda saksovulzorlar barpo qilingan maydonlar diaganallari bo'yicha hisoblanadi. Diaganallar joylashgan bir nechta qatorlarida hisoblash maydonchalari ajratiladi. Urug' ekish bilan barpo qilingan maydonlardagi ihotalarni sinov maydonlarining uzunligi 4 m, ko'chat o'tqazish yo'li bilan barpo qilingan maydonlar uzunligi 10 m ni tashkil qilishi kerak

Barcha sinov maydonlari maydonning bitta tomonidan joylashtiriladi. Sinov maydonchalarida ko'chatlarni yashovchanligini hisobga olish birinchisi aprelda, ikkinchisi iyunda, uchinchisi sentabrda amalga oshiriladi.

Ikki yilgi va uch yoshli turlarni yashovchanligi kuzda inventarizatsiya vaqtida hisobga olinadi. Ko'pgina cho'l o'simliklarining yashovchanligi ham 18 oygacha saqlanadi va shu



sababli keyingi yil ham o'sish xususiyatiga ega. Shu sababli urug' ekish yo'li bilan barpo etilgan saksovlzorlar meyor tavsifiya qilingan keyingi yil bahorda emas, balki 2 yildan keyin ekilgan urug'larning unib chiqmasligiga ishonch bo'lganidan so'ng to'ldirish ishlari amalga oshiriladi. Ko'chatni ekish bilan barpo qilingan ihotaz qatorlarida keyingi yil bahorda to'ldirish ishlari amalga oshiriladi.

To'ldirish ishlari urug'idan sepib barpo qilingan bo'lishidan, ko'chatidan ekib barpo qilingan bo'lishidan qat'iy nazar ularning yashovchanligi 25% va undan yuqori bo'lganida amalga oshiriladi.

Yashovchanligi 25% dan past bo'lgan maydonlar hisobdan chiqariladi va qayta barpo qilinadi. Ekinlarning to'liq qurib qolgan maydonlarida 14-16 sm chuqurlikda yerni haydash va qaytadan mexanizatsilashgan usulda urug' sepish yoki ko'chat o'tqazish ishlari amalga oshiriladi.

Turli xil darajada saqlanib qolgan o'simliklar o'sgan maydonlarda to'ldirish ishlari qo'lda amalga oshiriladi.

Saksovl o'rmonzorlari barpo etishda dastlabki yillarda ularni qo'riqlash katta ahamiyatga ega. Bizning cho'l saxro xududlarimiz asosan yaylov sifatida keng foydalaniladi. Shu sababli, yangi barpo qilingan saksovl o'rmonlari dastlabki yillarda chorva mollaridan o'ta katta e'tibor bilan ximoyalash shart. Chunki saksovl o'rmonlari dastlabki yillarda juda nozik lekin chorva mollarining to'yimli ozuqasi xioblaniladi.

Dastlabki yillarda biz barpo etgan saksovlzorlarimizni chorva mollaridan ximoya qila olmasak saksovl o'rmonlari barpo etish ishlari sifatsiz xolatga kelib qolishi mumkin.

Bulardan tashqari saksovl o'rmonlarini fitopotolog va entomolog mutaxassislari bilan doimo saksovl o'rmonlarini kasallik va zararkunandalar bilan zararlanishini oldini olish tadbirlarini o'z vaqtida bajarib borishimiz zarur bo'ladi.

Yangi barpo etilgan saksovl o'rmonzorlarini bizning sharoimizda 4 yoshidan o'rmon bilan qoplangan maydonlarda o'tkazish mumkin.

Dengizning qurigan tubi yengil va og'ir tuproq gruntlardan iborat. Yengil mexanik tarkibga ega tuproqlar 700 ming ga maydonda mavjud. 1985 yildan boshlab ushbu sharoitlarda o'rmon ihotazorlari barpo etish ishlari boshlab yuborilgan, tuproqqa ishlov berishda plug, chizel, diksli boronadan foydalanilgan.

Yaylovlarni himoyalovchi ihotazorlar va meliorativ-ozuqa daraxtzorlarini barpo etishda tuproq kuzda polosalar ko'rinishida 3 m kenglikda chizellanadi. Plug orqali shudgorlash va chizel yordamida tuproqni yumshatish 3-4 m kenglikdan ortib ketmasligi zarur.

Meliorativ - ozuqa ihotazorlar har 18-20 m joylashtiriladi. Ularda eng yaxshi sinalgan chogon, keyruk, teresken hisoblanadi.

**Chogon buta** (70-150 sm balandlikda) bo'lib 1 yillik novdalari va mevalari qo'ylar tomonidan yeyiladi.

**Keyruk yarim buta** (30-70 sm) galofit o'simlik hisoblanadi.

**Teresken** yarim buta. Ularning urug'i kuzda, qishda terilgandan keyin darhol sepiladi.

Tuproqni deflyatsiyadan saqlash uchun qorasaksovl va cherkezdan iborat oralig'i 10 m qilib ihotazorlar barpo etiladi. O'rtacha sho'rlangan yerlarda qora saksovl va Rixter cherkezi, kam sho'rlangan yerlarda oq saksovl, Paletskiy cherkezi, qandim urug'lari tirnagich orqali sepiladi. Barxanlarga ko'chatlar Kolesov mechi yordamida ekiladi.



Xarakatchan qumlarda mexanikaviy himoya vositalarini kuzda qurish kerak. Shundan so'ng saksovul urug'lari ekiladi. Nerozindan iborat himoya plyonkasi  $600 \text{ g/m}^2$  hisobidan qumlar qoplanadi, kuzda urug' ekish, bahorda 1 yillik urug'ko'chatlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yarim mustahkamlangan qumlarda yirik butalar ishtirokida tuproqni himoyalovchi ihotazorlar barpo etiladi. Polosali chizellash (orasi 10 m) o'tkazilgandan keyin darhol urug' sepiladi yoki ko'chat ekiladi. Agar tuz miqdori 1 % dan kam bo'lganda qora saksovul va Rixter cherkezidan tashqari Paletskiy cherkezi va qandim turlarini ham o'stirish mumkin.

Qatorlar orasiga komponent sifatida chogon, teresken, izen, keyrundan foydalanish mumkin. Keyingi yilda ihotazorlarda qurigan daraxtlarni o'rniga to'ldirish o'tkaziladi. Ko'chatlarni to'ldirish 1 gektardan 1,5 ming dan kam nihol bo'lsagina amalga oshiriladi.

Ko'chma qumlarni, qumoq yerlarni o'rmonlashtirishda mexanizatsiya vositalaridan, ayniqsa aero urug' ekish usullaridan keng foydalanish zarur.

Qatorda ko'chatlar 80 sm oraliqda ekiladi bu bir gektarga 1250 dona ko'chat ekilishini ta'minlaydi (qator orasi 10 m).

## References:

1. Novitskiy Z.B. Lesomelioratsiya vxodit v kompleks mer, napravlennix na ozdorovlenie ekologicheskoy obstanovki na osushennom dne Aralskogo morya // Uzbek. ekolog. vestn. 2017. № 4. s. 37–42.
2. Novitskiy Z.B. Oblesenie zasolennix pochvogruntov na osushennom dne Arala // sel. xoz-vo Uzbekistana. 2018. № 8. s. 33.
3. Novitskiy Z.B., Ustemirov K.J. Lesnye nasajdeniya na osushennom dne Aralskogo morya // Ekol. vestn. Uzbekistana. 2015. № 10. s. 31–36.
4. Novitskiy Z.B., Ustemirov K.J., Borovkov A.V., Tairbergenov Y.K. Lesomelioratsiya osushennogo dna Aralskogo morya // Ekol. vestn. Uzbekistana. 2016. № 6. s. 22–25.